



**FAYZULLA AHMADALIYEV IJODIDA RAMZIY OBRAZLAR:
“MASHRAB” VA “QIYOMAT ROMAN”I UCHUN CHIZILGAN
ASARLARNING BADIY TAHLILI**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 3-bosqich
talabasi*

Hilola Orifjon qizi Abdusalomova

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston xalq rassomi Fayzulla Ahmadaliyevning “Mashrab” va “Qiyomat roman”i uchun chizilgan asarlaridagi ramziy obrazlar badiiy tahlil qilinadi. Rassomning tarixiy shaxslar xarakterini ochib berishdagi uslubi, kompozitsion tuzilishi va rangtasvir vositalaridan foydalanish mahorati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Fayzulla Ahmadaliyev, ramziy obraz, badiiy tahlil, “Mashrab”, “Qiyomat roman”.

Mashrab – o‘zbek adabiyoti va tasavvuf tarixida o‘chmas iz qoldirgan shoir, mutasavvif va murshid. Uning hayoti, ijodi va fojiali qismati ko‘plab ijodkorlar uchun ilhom manbai bo‘lib kelgan. Rassom Fayzulla Ahmadaliyev tomonidan yaratilgan Mashrabga oid asar shoirning ichki dunyosini, uning ruhiy kechinmalari va hayotining fojiali tomonlarini ramziy obrazlar orqali gavdalantiradi. Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanida ezgulik va oliyjanoblikning, yaxshilik va to‘g‘rilikning, adolat va haqgo‘ylikning qiyomat- qoyim darajasiga tushayotgan holatlari tabiat, jamiyat, inson va iymon muammolarini aks ettirish orqali ko‘rsatiladi. Ushbu roman ham rassom uchun ilhom manbayi bo‘lgan. Bu roman uchun bir qator rasmlar chizilgan. U rasmlarda asosiy mavzu „Ona bo‘ri obrazi”.

Ona bo‘ri. Mato, moybo‘yoq, O‘zbekiston Davlat san‘at muzeyi (1-rasm)

1-rasmdagi („Ona bo‘ri”) tumanli muhit g‘amginlik va tushkunlik hissini oshiradi. Qiyinchiliklarga bardosh berayotgan kuchli onani ifodalaydi. Uning nigohi chetga qaratilganligi bo‘rining charchoq, iztirob yoki ichki o‘ylar bilan band ekanligini bildirishi mumkin. Rassom onalikning buyukligi mavzusini yirtqich hayvonlar hayotidan syujet yordamida yetkazdi. Bo‘ri ona obrazini she‘riyat bilan ifodalab, uni oydan yuqoriga qo‘yadi, chunki onalik bu ulug‘vor samoviy jismdan balanddir. Bugungi kunda O‘zbekiston Davlat San‘at muzeyida saqlanayotgan bu asardagi iztirobli tasvir tomoshabinni hayajonga soladi. Fayzulla Ahmadaliyev ushbu roman ta‘sirida bir necha ishlar yaratganligini, ularni yozuvchining o‘ziga ko‘rsata olmay qolganligidan o‘kinadi.

Ikki ona. Fayzulla Ahmadaliyev. (2-rasm)



Bozorboy Noygutov geologlarni manzilga yetkazib qaytayotganda, to'rt bo'ri bolasini o'g'irlab ketadi. Bu Akbara va Toshchaynarning bolalari edi. Bo'rilar bolalarini qidira boshlaydi, lekin Bozorboy cho'pon Bo'stonning uyiga kirib qutiladi. Bo'ston bolalarni qaytarishni so'raydi, ammo Bozorboy rad etadi. Bolalaridan ayrilgan bo'rilar odamlarga hujum qila boshlaydi. Bo'ston Toshchaynarning qo'ylarga tashlanganini ko'rib, uni otib o'ldiradi. Alamzada Akbara Bo'stonning o'g'li Kenjashni tishlab olib qochadi. Bo'ston uni otmoqchi bo'lib o'q uzadi, lekin xatolik bilan o'z bolasini o'ldiradi. G'azab bilan Bozorboyni ham otib qo'yadi.

„Ikki ona” asarida (2-rasm) ko'rishimiz mumkin ikkala ona ham farzand dog'ida ado bo'lganligini. Kenjash farishta obrazida Gulimxonga bir qo'lini tutgan holda, onasiga suyanib turibdi. Gulimxon ro'mol o'ragan va yuzini yopgan holatda bolasiga qaramay turibdi. Kenjash farishta aylanib onasini ko'rgani kelgani tasvirlanadi. Bo'ri turkiy xalq og'zaki ijodida totemik manbalardan obraz etib, qadimgi kelgan rivoyatlarda bo'ri turk urug'i avlodining davomchisi sifatida ta'riflanadi. „Ona bo'ri” nomli afsonada tasvirlanishicha, Turkular go'yo dushman tomonidan qirilgan turk urug'i orasida tirik qolgan o'n yoshli o'g'il bola va ona bo'ridan tarqalgan „Bo'ri”, „Bo'ri qiz”, „Cho'loqbo'ri” kabi ertaklarda talqin etilgan totemik bo'ri obrazi insonning xaloskori, uning himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Chingiz Aytmatovning „Qiyomat” romanida bo'ri ijobiy ma'noda tavsiflanadi.

Mashrab. Fayzulla Ahmadaliyev (3-rasm)

Ushbu asar (3-asar) o'zbek adabiyotining klassigi, shoiri va mutafakkiri Mashrabga bag'ishlangan. U darvesh qiyofasida yuzsiz, qo'lida qush bilan tasvirlangan. Bu asar afsonalarning o'lmasligi haqida. Mashrab qo'lidagi qush uning ichki olami va qalbini aks ettiradi. Mashrab erkin fikrli, odil va xalqparvar bo'lgan. Uning qo'lidagi qush erkinlik timsoli bo'lib, u jismonan emas, fikran ozod bo'lishni ifoda etadi. Qush ba'zan xabar keltiruvchi timsol bo'lib ham xizmat qiladi. Mashrabning qo'lidagi qush unga xavf-xatarlar haqida xabar bergani uchun kelgan bo'lishi mumkin. Vaqt ijodkor nomini va siymosini inson xotirasidan o'chirib tashlashi mumkin, lekin uning hikoyalari og'izdan og'izga o'tib, avlodlar osha yashab qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Айтматов, Чингиз. Қиёмат: роман/Чингиз Айтматов. Рус тилидан Иброҳим Ғафуров таржимаси. Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 432 б.
2. <https://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/uzbek/pdf/chingiz-aytm-ato/qiyomat-roman/#gsc.tab=0>.
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/chingiz-aytm-1928-2008-qirg-iziston/chingiz-aytm-qiyomat-roma>



n.

4. <https://ocau.uz/uz/fayzullo-ahmadaliev>.

5. Бобораҳим Машраб. Кимё. / Нашрга тайёрловчи Ҳожи Исм Абдуллох. Наманган: Наманган, 1999.- Б. 3